

Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Dildora Toshevaning 2-sinf uchun
matematika fanidan
1 soarlik dars ishlanmasi



Fan: Matematika

Sinf: 2-“A”

Mavzu: 3 ni ko`paytirishga doir misol, masala yechish

Darsning texnologik xaritasi

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: 3 ni ko`paytirish usullari, qo`shish ko`rinishdagi misollarni ko`paytirishga almashtirish.

Mavzuning qisqacha mazmuni: 3 ni ko`paytirishga doir misollar , ko`paytirish amali orqali yechimi topiladigan masala yechish.

O`quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: Interfaol, masq qilish, , mustaqil ishlash ,namoyish qilish.

Shakl: Guruh bilan ishlash

Jihoz: Mavzuga oid rasmlı misollar, tarqatma materiallar, shakllar.

Nazorat: ,Uy vazifasini tekshirish, og`zaki so`rov, doskada va mustaqil ravishda misollar yechish, masalani birgalikda tahlil qilib yechimini topish.

Baholash: Doskada yoki mustaqil ravishda misol, masala yechishi , og`zaki savol-javob faolligiga qarab o`quvchilar baholanadi.

Darsning maqsadlari:

**Ta`limiy:** O`quvchılarda 3 ni ko`paytirishga doir misollarni yechish bo`yicha bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy: Bahor faslida nishonlanadigan bayramlar bilan tanishtirish orqali ekologik tarbiya berish, tabiatni asrab-avaylashga o`rgarish.

Rivojlantiruvchi: Matematik boshqotirma ustida fikr-mulohaza yuritishga jalb qilish orqali mantiqiy fikrlash ko`nikmalarini shakllantirish.

Kutilayotgan natija:

3 ni ko`paytirishga doir misollarni yechish bo`yicha ko`nikma va malakalarga ega bo`ladilar, qo`shish ko`rinishdagi misollarni ko`paytirishga almashtirishni uddalay oladilar.

Dars jarayoni va texnologiyasi

Dars bosqichi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich. Tashkiliy qism	O`quvchılarning davomati aniqlanadi. O`quvchılarning darsga hozirligi tekshiriladi.		1 minut
2-bosqich. Ehtiyoj (refleksiya) larni aniqlash.	Kirish suhbatı uyushtirish. Sayohat darsining qoidalari belgilab olinadi.	Munozara	1 minut
3-bosqich. O`tgan mavzuni mustahkamlash.	2 ni ko`paytirishga doir mashqni bajarish orqali mavzuni mustahkamlash.	Savol-javob	4 minut
4-bosqish. Yangi mavzu bayoni	3 ni ko`paytirishga oid darslikning 156-betida berilgan 1-3- misollarni yechish orqali tushuntiriladi.Mantiqiy masala.	Savol-javob	15minut
5-bosqich. Yangi mavzuni	O`quvchilar bilan birgalikda 4,5 -misollar bajariladi.	Mustaqil ish, savol-javob.	20 minut

mustahkamlash.			
6-bosqish. Baholash	Darsdagi faolligiga qarab o`quvchilar baholanadi.		2 minut
7-bosqich. Uyga vazifa berish.	6,7–misol (157-bet) uyga vazifa sifatida topshiriladi, bajarish yuzasidan tegishli ko`rsatma beriladi.		2 minut

Izoh: O`quvchilarga guldona tasvirlangan rasm tarqatiladi, har bir to`g`ri javob uchun lola guli berilishi, dars yakunida kimning guldona lolalar soni ko`pligi aniqlanishini tushuntiriladi.



Dars jarayoni

1-bosqich. Texnologik xarita asosida o`tdi. O`quvchilar bir-birlariga qarab, tabassum qiladilar va o`tiradilar.

2-bosqich. Kirish suhbatini uyushtirish.

- O`quvchilar, bugungi darsimiz sayohat tarzida o`tdi. Barchangiz sayohat qilishni yoqtirsangiz kerak? Biz tezyurar “Afrosiyob” poyezida fasllar kelinchagi bahor oylariga tashrif buyuramiz. Bahor faslida nishonlanadigan bayramlar haqida suhbatlashamiz.



“Afrosiyob” poyezdiga o`tirish uchun chipta sotib olish lozim. Topishmoqni javobini topsak, chiptalarni olishimiz mumkin:



Hilpirab berar darak,
O`zbekiston – mushtarak.
Oy-u, o`n ikki yulduz,
Kechani aylar kunduz. (Bayroq)

-Sayohat davomida sizning egallagan bilimlaringiz, qiziqarli misol va masalalarni yechishda qoʻl keladi. Bir- birimizga “Oq yoʻl” tilab sayohatimizni boshlaymiz.

3-bosqich. Slayd namoyishi orqali oʻtgan mavzu 2ni koʻpaytirish va 2 ga boʻlishni mustahkamlash.


-Tezyurar poyezdiga oʻtirib, keyingi stansiyaga yoʻl olamiz. Bahor faslining birinchi oyi qanday nomlanadi?

- Mart oyi.

-Mart yilning nechanchi oyi hisoblanadi?

- Mart yilning uchinchi oyi.

- Hozir siz bilan “Oʻyla, izla, top” mashqini bajaramiz. Mart yilning uchinchi oyi ekanligini bilgan holda uchburchak shakli ichidagi sonlardan ikkiga karraligini tanlab oling .



Har bir oʻquvchiga shakl tushurilgan qogʻoz tarqatib chiqiladi.

-Endi bir xonali va ikki xonali sonlarni oʻsib borish tartibida jadvalga joylashtiring , ulardan hosil boʻlgan soʻzlarni oʻqing.

2	4	6	8
M	A	R	T

10	12	14	16	18	20
N	A	V	R	Oʻ	Z

-Bolalar, biz “ Nazroʻz ” stansiyasiga yetib keldik. Bahor faslida nishonlanadigan milliy bayramlarimizdan biri Navroʻz. Navroʻz yangilanish va yasharish bayrami hisoblanadi.

Slayd orqali Navroʻz bayrami oid urf-odatlar yuzasidan savol-javob oʻtkaziladi.

4-bosqish. Yangi mavzu bayoni.

- Sayohatimizni davom ettirib, keying stansiya tomon yoʻl olamiz. Yilning toʻrtinchi oyi qanday nomlanadi?

- Yilning toʻrtinchi oyi Aprel.

- To'rtburchak shakli ichida joylashgan topishmoqning javobi keying stansiya nomi bilan bizni tanishtiradi:

Yolg'iz qolsam yo'ldoshdir,
O'qib mazza qilaman.
Hayotimda ko'z-qoshdir,
Endi ko'p ish bilaman.
Bobom deydi nur – o'tob,
Uyga kirgan har (...)




- “Kitob” stansiyasiga xush kelibsiz! Aprel oyidagi kitob bilan bog'liq sanani ayta olasizmi?
- 2-aprel “Xalqaro bolalar kitobi kuni”
- Bizning eng yaqin do'stimiz kitob bilan ishlashni boshlab, 3 ni ko'paytirishga doir misollarni yechishni o'rganamiz.




$$3+3=6$$

$$3*2=\square$$




$$3+3+3=9$$

$$3*3=\square$$



$$3+3+3+3=12$$

$$3*4=\square\square$$



$$3+3+3+3+3=15$$

$$3*5=\square\square$$

Ko'paytirish jadvalini yodda tuting:

$$3*2=6$$

$$3*4=12$$

$$3*3=9$$

$$3*5=15$$

2-misol. Misollarni yechish.

$$3*2+3=6+3=9$$

$$3*3+3=9+3=12$$

$$3*4+3=12+3=15$$

$$3*5+3=15+3=18$$

O'quvchilarni rag'batlantirish.

- Barakalla, aziz o`quvchilar! Misollarning yechimini topishni o`rganib oldingiz. Ayting-chi, “Kuch adolatda” deb aytgan buyuk ajdodimiz kim va ular qachon tavallud topganlar?
- Sohibqiron Amir Temur bobomiz 9-aprelda tavallud topganlar.
- Buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo`lish burchimiz ekanligini yodda saqlagan holda sayohatimizni davom ettiramiz.

Mantiqiy masala:

Daraxt shoxida 10 ta chumchuq qo`nib turgan edi, ovchi otgan o`q uchtasiga tegdi. Nechta chumchuq qoldi? (7 ta degan javob qoniqarli emas)



5-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash.

- Bolalar, ozgina charchagan ko`rinasiz. 3-masala yechimini topsak asal hammamizga kuch va quvvat beradi.



3 kg



? kg

1 banka asal – 3 kg

6 banka asal - ? kg

Yechilishi: $6 \cdot 3 = 18$ (kg)

Javob: 6 ta bankada 18 kg asal.

4-misol. Qo`shishga doir misollarni ko`paytirishga doir misollar bilan almashtirib yechish.

Namuna: $3+3=3 \cdot 2$

Doskada bajariladi.

$$3+3+3=3 \cdot 3$$

$$3+3+3+3=3 \cdot 4$$

$$3+3+3+3+3=3 \cdot 5$$


- Osmonni qora bulutlar qoplab, yomg`ir yog`a boshladi. Qaysi stansiyaga yaqinlashib qolganimiz ko`rinmayapti. Quyosh yana charaqlab chiqishi uchun “Bulutlar” mashqini to`g`ri bajarishimiz kerak. (5-misol asosida)

$$3 \cdot 4$$

3*1

3*3

- Bilimingiz bulutlarni haydadi. Sizning bilim olishingiz uchun davlatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Siz voyaga yetayotgan maskan qanday nomlanadi?
- “O`zbekiston” deb ataladi.
- Sayohatimizga yakun yasaydigan “O`zbekiston” stansiyasiga yaqinlashib qoldik. Yilning beshinchi oyi qanday nomlanadi?
- May yilning beshinchi, bahor faslining uchinchi oyi hisoblanadi.
- May oyida qanday bayramlarni nishonlaymiz?
- May oyida 9-may “Xotira va qadrlash kuni”, 25-mayda “So`nggi qo`ng`iroq” bayramlari nishonlanadi.
- Mana “O`zbekiston” stansiyasiga ham yetib keldik. Darsimizda foydalangan uchburchak va to`rtburchaklarni birlashtirib beshburchakni hosil qilamiz.



- O`zbekiston barchamizning umumiy uyimiz. Vatanimiz, ota-onamiz oldidagi farzandlik burchimizni bajarish uchun bilim cho`qqilarini egallashimiz lozim.

6-bosqish. Baholash. Darsdagi faolligiga qarab o`quvchilar rag`batlantiriladi.

- Darsimizga yakun yasaymiz, lekin fanlar ichra sayohatimiz hali davom etadi. Guldonga yig`gan gullaringizni mehribon oyijoningizga sovg`a qiling. Bilimlar guldastasi rang-barang bo`lib kengayaversin, aslo so`limasin.

7-bosqich. Uyga vazifa berish.

6,7–misol (157-bet) uyga vazifa sifatida topshiriladi, bajarish yuzasidan tegishli ko`rsatma beriladi.